

ICHKI SEKRETSIYA BEZLARINING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI

Sayfilloyeva Sabina Murod qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti

1-1DEF-23 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10407133>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki sekretsiya bezi organizmdagi har xil a'zo va to'qimalarning qonga yoki to'qima suyuqligiga maxsus moddalar ishlab chiqarishi tahlil qilinadi. Ichki sekretsiya beziga yana qanday bezlar kiradi va ularning bajaradigan funksional vazifalari bayon etilgan.

Kalit so'z: Epifiz, gipofiz, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari, endokrin bezlar, bazedov, miksedema, gormon.

AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ENDOCRINE GLANDS

Abstract. This article analyzes how the endocrine gland secretes special substances into the blood or tissue fluid of various organs and tissues in the body. What other glands are included in the endocrine gland and their functional tasks are described.

Key words: Pineak gland, pituitary gland, thyroid gland, renal gland, endocrine glands, bazedov, myxedema, hormone.

ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕЛЕЗ ВНУТРЕННЕЙ СЕКРЕЦИИ

Аннотация. В данной анализируется, как железа внутренней секреции выделяет специальные вещества в кровь или тканевую жидкость различных органов и тканей организма. Какие еще железы входят в состав эндокринной железы и описаны их функциональные задачи.

Ключевые слова. Шишковидная железа, гипофиз, щитовидная железа, почка, железы внутренней секреции, базедов, микседема, гормон.

Kirish.

Evolutsiya jarayonida shunday o'ziga xos organlar tizimi hosil bo'ladiki, butun tizim murakkab kimyoviy moddalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib xatto hayot jarayonlarini ham boshqara oladi. Bu ichki sekretsiya bezlaridir. Ichki sekretsiya bezlarining chiqarish yo'llari bo'lmaydi, shuning uchun ular endokrin bezlari deb ataladi. Bu so'z grekcha endo-ichki va krino-ajratish, chiqarish so'zidan olingan. Organizmning boshqa organlari singari ichki sekretsiya bezlari ham hayvonot olamining evolyutsion taraqqiyoti maxsuli bo'lib, dastavval qurtlarda yumshoq tanlilarda asta-sekin rivojlangan va takomillashgan. Umrtqali hayvonlarda asosan insonlarda esa ichki sekretsiya bezlari yuksak daajada taraqqiy etgan. Ichki sekretsiya haqidagi tushuncha birinchi marta fiziologiyada, KLOD BERNAR tomonidan kiritilgan.

Klod Bernar 1855-yilda maxsus tekshiruv o'tkazib, jigarning ovqat hazm qilish organlariga o't suyuqligi va qonga gilikologen chiqarishini aniqlagan. Shunday qilib, organizmda tashqi sekretsiyadan boshqa sekretsiya jarayonlari ham borligini isbot etgan va o'z sekretsiyalarini organizm ichiga chiqarib beradigan bezlarni ichki sekretsiya bezlari deb atagan. Ichki sekretsiya bezlariga qalqonsimon bez atrofidagi bezchalar ayrisimon bez buyrak usti bezlari, gipofiz va epifiz bezlari kiradi. Bu bezlar moddalar almashinuviga organizmning o'sishi va rivojlanishiga hamda jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanish, balog'atga yetish va barcha organlarning faoliyatlariga

ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari nafas olishga, qon aylanishiga, ovqat hazm qilisha, ayirishga, ko'payish organlari funksiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Epifiz bezi. Epifiz bezi-og'irligi 0.2-03 gr bo'lib garmon melatanin, 6-7 yoshga borganda atrofiyaga uchraydi, agarda bolalarda kasallik tufayli yoki boshqa sababga ko'ra faolyat buzilsa ularda muddatdan oldin jinsiy yetilish boshlanadi.

Gipofiz- No'xat shaklida bosh miya osti yuzasida joylashgan. Og'irligi katta yoshli odamlarda 0.5-0.6 gr bo'ladi. Bu bez qantomirlari orqali bosh miya gipotalamus bilan bog'langan.

Gipofiz garmonlari ko'pchilik endokrin bezlariga ta'sir ko'rsatadi. Bezning somatotrop garmoni bo'y o'sishiga ta'sir qiladi. Yosh bolalarda bu garmon ko'p ishlab chiqarila boshlansa bo'y o'sib, gigantizm, kamroq ishlab chiqarilsa nanizm kelib chiqadi. Gigantizm nisbatan kam uchraydi. O'rta hisobda har 100 kishiga 2-3 ta odam to'g'ri keladi. Hatto bo'yi 260-270 sm dan baland borligi haqida yozilgan.

Qalqonsimon bez ichki sekretiya bezlari ichida eng yirik bezdir. Massasi 5-10 yoshli bolalarda 10gr, katta yoshdagi odamlarda 25-30 gr keladi. Qalqonsimon bezning organizmdagi ahamiyati juda katta. Uning asosiy funksiyasi qon plazmasidan yodni qon sentrlashi, tiroksin garmoni hosil qilish va uning qonga tushushini ta'minlashdan iborat. Qalqonsimon bez garmoni-tiroksin tarkibida 65.3% gacha yod bo'ladi. Katta odam organizmda 25mg yod bo'ladi, shundan 15mg qalqonsimon bezda saqlanadi. Tiroksin moddalar almashinuvining kuchli stimulyatori hisoblanadi, u biokimyoviy nerv sistemasiga va barcha organlarga ta'sir ko'rsatadi.

Ayrisimon bez- bu bez to'sh suyagining orqa yuzasida joylashgan. Uning massasi chaqaloqlarda 12 gr bo'lib, to balog'atga yetushguncha 14- 15 yoshgacha kattalashib, 30-40 gr ga yetadi. Ayrisimon bezda timozin garmoni ishlab chiqariladi. U bolalarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jinsiy bezlar funksiyasini pasaytirib bolada balog'atga yetishini susaytiradi. Bundan tashqari timozin limfotsitlar hosil bo'lishini kuchaytirib organizmning immunitet xususiyatini oshiradi.

Buyrak usti bezlari-bir juft bo'lib, buyraklarning ustki qismida joylashgan, vazni 10-14 gr. Bu bez ikki qavatdan po'stloq va mag'z qavatlaridan tuzilgan bo'lib, po'stloq qavati mezodermadan, mag'iz qavati ektodermadan hosil bo'lgan. Yangi tug'ilgan bolalarda bezning vazni 6-8 g, 1-5 yoshda 5-6gr, 10 yoshda 6-5 gr, 11-15 yoshda 8.5gr, 16-20 yoshda 13.2gr bo'ladi. Yangi tug'ilgan bolada po'stloq qavati mag'iz qavatiga nisbatan yaxshi rivojlangan bo'ladi. Buyrak usti bezining po'stloq qismidan 3 ta asosiy garmon: moddalar almashinuviga ta'sir etuvchi glyukokortikoid garmonlar, mineral tuzlar almashinuvini boshqarish mineralokortikoidlar, erkak va ayol jinsiy garmonlarining bir tur androgenlar va estrogenlar ishlab chiqariladi

Xulosa

Xulosa qilib aytilganda ichki sekretiya bezlari odam organizmning o'sish, rivojlanish, balog'at yoshida o'ziga xos o'zgarishlarni hamda turli xil kasalliklarga qarshi kurashishni ta'minlab beradi.

REFERENCES

1. Azkurs.org//7-mavzu-ichki-sekretsia-bezlarining-yosh-xususiyatlari.
2. K.T.Almatov, I.S. Kmmeshara, A.T.Matchonov, SH.I.Allamuratov- Ulg'ayish fiziologiyasi- M. Ulug'bek nomidagi UZMU 2004.
3. Q.Sodiqov Kichik maktab yoshidagi bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi- T.Bilim 2004 y.
4. Solixo'jayev S.S, Iskandarova. SH.T, Do'stjanov B.D, Umumiy gigiyena-T 2003 y.
5. Tuxtaev F, Jabborov R, Dehqonov SH, O'smirlar fiziologiyasi(uslubiy qo'llanma)- Samarqand 2007y.